

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA LIM, FAN VA INNOVATSIYA LAR VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA “ONA TILI VA ADABIYOTI”
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO‘NALISHLAR (KO’ZI OJIZLAR)
UCHUN DASTUR
(ta’lim yo‘nalishlarga mos fan bo‘yicha)

JIZZAX — 2023

Dastur Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2023 yil “___” _____dagi “___” sonli majlis bayoni.

Ushbu dastur Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv-uslubiy Kengashining 2023-yil 27 iyundagi 6-sonli majlisida tasdiqlangan dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

M.Jo‘rayev - Jizzax DPU O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasи mudiri, dotsent.

Sh.Almamatova - Jizzax DPU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasи dotsenti.

Sh.Siddiqova - Jizzax DPU Boshlang‘ch ta‘lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasи dotsenti.

Taqrizchi:

F.Ibragimova - Jizzax DPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, dotsent.

L.Sindorov - O‘zMU Jizzax filiali o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti.

KIRISH

Mazkur dastur ko‘zi ojiz va ko‘rish qobiliyati sust bo‘lgan abituriyentlar uchun O‘zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quv dasturiga mos tarzda tuzilgan.

Ona tilining grammatik xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari va o‘zbek adabiyotining asosiy tamoyillari, mualif va asarlari umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi darsliklarida yoritilgan.

Til va jamiyat, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo‘limlar hamda adabiyot, so‘z san’ati, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, xalq og‘zaki ijodi, janrlari, uyg‘onish davri adabiyoti, yangi davr o‘zbek adabiyoti, ma’rifatparvarlik adabiyoti, jadid adabiyoti, sho‘rolar davri adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti bo‘yicha berilgan mavzular o‘quvchi tafakkurini o‘stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bo‘lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, til va adabiyot turkumidagi alohida fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko‘zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatлari uchun puxta nazariy asos yaratish; til va adabiyot masalalarini talqin qila olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda o‘zbek tili grammatikasi asoslarini o‘zlashtirish, adabiyot fani doirasidagi mavzularni, yozuvchi hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni o‘rganish, badiiy san’at turlarini bilish, tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish vazifalari ko‘zda tutilgan.

Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar

“Ona tili va adabiyoti” (ko‘zi ojizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko‘ra o‘zbek tili va adabiyoti fanlarining har biriga talablar qo‘yiladi:

Ona tili fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik me’yorlari;
- orfografiyaga, orfoepiyaning nazariy masalalari asosida og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini;
- lotin yozushi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi qoidalarini;
- tilshunoslikning har bir bo‘limlari bo‘yicha umumiyligi o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim dasturlariga yaqinlashtirilgan holdagi ma’lumotn;
- grammatik tahlil qilish ko‘nikmasini bilishi kefak.

O‘zbek adabiyoti bo‘yicha abituriyent:

- o‘zbek adabiyotining asosiy nazariy tamoyillari;
- adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirgan mashhur adiblar hayoti;
- milliy adabiyot tarixidan o‘rin olgan asarlar va ularning tahlili;
- zamonaviy adabiyotga tegishli ayrim ijodkorlar faoliyatidan xabardor bo‘lishlari kerak.

Fanning mazmuni

Ona tili

Til va jamiyat. Tilning **jamiyat** taraqqiyotida tutgan o‘rni. Tilning aqliy-munosabat vositasi sifatidagi ahamiyati. Dunyo tillari. Til oilalari.

Fonetika. Nutq tovushlari va matnning tasnifi. Fonema”, “urg“u”, “bo‘g“in” tushunchalari. Fonetik o‘zgarishlar: tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi.

Orfoepiya. Talaffuz me’yorlari. Orfoepiya me’yorlari asosidagi tovush o‘zgarishlari: assimilyasiya, dissimilyasiya, metateza.

Orfografiya. Imlo qoidalari. Fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidalari.

Grafika. Tovush va harf munosabati. Yozuv tarixi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi.

Leksikologiya. So‘z va ma’no. Lug‘aviy ma’no va gramma tik ma’no. O‘z ma’no va ko‘chma ma’no. Bir ma’noli (monosemantik) va ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar. So‘z va leksema. So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari: shakldoshlik, ma’nodoshlik, zid ma’no1ilik, paronimlik hodisalari.

Tarixiylik jihatdan o‘zbek tili leksikasi. Tarixiy so‘zlar, arxaizmlar, neologizmlar. O‘zbek tilining lug‘at boyligi. Qo‘llanish doirasiga ko‘ra o‘zbek tili leksikasi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. Hududiy chegaralangan so‘zlar: lahja, sheva tushunchalari. Ijtimoiy chegaralangan so‘zlar: argo va jargonlar. Termin (atama)lar. Terminologiya (atamashunoslik).

Lug‘at boyligining ortib borish usullari: ichki manba va tashqi manba. Olinma so‘zlar.

Barqaror birikmalar: maqol-matallar, iboralar, hikmatli so‘zlar (aforizmlar).

Leksikografiya. Lug‘at va uning turlari. Ensiklopedik lug‘atlar. Filologik lug‘atlar.

Morfemika. So‘z tarkibi. O‘zak morfema va affiksal morfema. Affiksal morfema (qo‘sishchalar)ning vazifasiga ko‘ra turlari: so‘z yasovchi va shakl yasovchi (lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qo‘sishchalar.

Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiya - so‘z turkumlari, gramma tik shakl, gramma tik ma’no haqidagi bo‘lim sifatida.

So‘z turkumlari. To‘plam va tasnif. Mustaqil so‘z turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatlari. Otlarning lug‘aviy shakllari: ko‘plik, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning munosabat shakllari: kelishik va egalik qo‘sishchalar.

Sifat. Sifat darajalari. Asliy sifat va nisbiy sifat. Tub va yasama sifatlar.

Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (o‘lchov) so‘zları.

Olmosh. Olmoshning ma no turlari. Kishilik olmoshlari. Ko‘rsatish olmoshlari. O‘zlik olmoshi. So‘roq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Bo‘lishsizlik olmoshlari. Guman olmoshlari.

Fe’l. Fe’llaming ma’no turlari: harakat va holat fe’llari. Tuslanish. Fe’larda zamon, mayl, bo‘lishi-bo‘lishsizlik tushunchalarining ifodalananishi. O‘timli va o‘timsiz fe’llar. Fe’l nisbatlari.

Ravish. Ravishning ma’no turlari. Ravishlarda kelishik va egalik shakllarining yaxlitlanib qolishi.

Yordamchi so‘zlar: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.

Undov so‘zlar. Taqlid so‘zlar. Modal so‘zlar.

Sintaksis. So‘z birikmasi. So‘z birikmasining bog‘lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. So‘z birikmasi turlari: otli birikma va fe’lli birikma.

Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak gap, so‘roq gap, buyruq gap,

Gapning his-hayajon ishtirokiga ko‘ra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap.

Gapning modallikka (voqelikka munosabatiga) ko‘ra tasnifi: tasdiq gap va inkor gap.

Gapning tuzilishiga ko‘ra tasnifi: sodda gap va qo‘shma gap.

Sodda gap sintaksi. Gap bo‘laklari: gapning bosh bo‘laklari. Kesim: ot-kesim va fe’l-kesim. Murakkab ot-kesim. Bog‘lama. Murakkab ot-kesim va ega o‘rtasida tirening ishlatilishi. Ega. Ega ishtirokiga ko‘ra sodda gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo‘lmagan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So‘z-gap. Atov gap.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari: hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi.

Gapning uyushiq bo‘laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to‘ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchi.

Gapning ajratilgan bo‘laklari. Ajratilgan kesim, ega, hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi.

Gap bo‘laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan bo‘laklar: kiritma, kiritma gap, undalma.

Sodda yig‘iq gap. Sodda yoyiq gap. To‘liq gap va to‘liqsiz gap. Gap bo‘laklari tarkibi. Inversiya.

Qo‘shma gap sintaksi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplami bog‘lovchi vositalar.

Qo‘shma gapning tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lovchi vositalar xarakteriga ko‘ra turlari: bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Havola bo‘lakli gap. Qo‘shma gapning sodda gap bilan ma’nodoshligi.

Uslubiyat. Nutq uslublari: so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idora ish uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo‘llanishi.

O‘zbek adabiyoti

Qadimgi adabiy yodgorliklar. “Avesto” adabiy manba sifatida. O‘rxun-Enasoy obidalari. “Devonu lug‘at-t-turk”dagi adabiy namunalar. “Qutadg‘u bilig” dostonining obrazlar tizimi. “Hibatu-1-haqoyiq” asarining ma’rifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmat janri taraqqiyoti.

Temuriylar davri adabiyoti. Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Gadoiy, Atoyi, Lutfiy va Sakkokiy she’riyati.

Navoiy tarjimayi holining adabiy manbalari. “Xazoyinu-1-maoniy”ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. “Xamsa”chilik an’analari va Navoiy “Xamsa”si.

XVI-XIX asrlar adabiyoti. Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. Bobur badiiy merosi, “Boburnoma”, Ilmiy merosi. Qul Ubaydiy ijodi. Mashrab she’riyati. “Mabdai nur” muallifligi masalasi. Huvaydo g‘azallari poetikasi. Amir Umarxon adabiy muhiti ijodkorlari. Nodira ijodi. Ogahiy she’riyatining obrazlar tizimi. Muqimiy va Furqat ijodi. Avaz O’tar asarlari.

Yangi o‘zbek (milliy uyg‘onish) adabiyoti. Jadid tushunchasi, maqsad, vazifalari, o‘rganilishi, muammolari. Milliy matbuot. Milliy teatr, badiiy adabiyot, ma’rifiy-ijtimoiy she’riyat (A.Avloniy, Hamza, So‘fizoda, A.Qodiriy) va publisistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Hoji Muin).

Yangi o‘zbek adabiyoti. Sho‘ro davri adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari. G‘.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Zulfiya, M.Shayxzoda, Mirtemir kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining namoyandalari sifatida.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti. Mustaqillik tuyg‘usi o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglashga tashnalik sifatida namoyon bo‘1ganligi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotiga Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, R.Vohidov, A.Orlov, O.Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Erkin A’zam, Xurshid Do‘stmuhamed, Nazar Eshonqul va boshqa ijodkorlar qo‘shtan hissalari xususida. Ular ijodidagi o‘ziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar.

IJODIY (KASBIY) IMTIIION NATIJALARINI BAHOLASH M E Z O N I

Ko‘zi ojizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko‘zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og‘zaki tarzda o‘tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 (“a’lo”)ga baholanishi uchun:

•mavzuning mohiyaiini to‘g‘ri anglagan bo‘lishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritishi;

- mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;
- fakt va misollardan o‘rinli foydalanib to‘g‘ri xulosalar chiqara olishi;
- mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;
- talab darajasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bo‘lishi;
- nutqi ravon bo‘lib, fikrini adabiy tilda ta’sirchan ifodalay bilishi zarur.

2. Abit iiriyyentning javobi 4 (“yaxsbi”)ga baholanishi uchun:

•mavzu mohiyatini atrofiicha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;

•mustaqil fikrlashga intilishi;

•fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lishi;

•nutqida mantiqiylik, ravonlik, obrazlilik ko‘zga tashlanib turishi;

•manbalardan, fakt va misollardan o‘rinli foydalana olishi;

•filologik va ijtimoiy-siyosiy savodxonligi yetarli bo‘lishi;

•fikrini adabiy tilda to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 (“qoniqarli”)ga baholanishi uchun.

•mavzu mohiyatini chuqurroq ochib berishi, notiqlik qobiliyati sezilib turishi;

- so‘z san’ati va nutq madaniyati haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo‘lishi;
- so‘zni bir qadar nozikroq idrok etabiliishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;
- fikr bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo‘lishi;
- fakt va misollardan to‘g‘ri foydalanib, to‘g‘ri xulosalar chiqara olishi;
- fikrini adabiy tilda ifodalashga intilishi kerak.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 (“qoniqarsiz”)ga baholanadi:

- mavzu mohiyati yetarli darajada ochilmasa;
- tilshunoslik bo‘limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lmasa;
- fikrni ifodalashda g‘alizlik uchrashi;
- abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo‘lsa;
- fikrlash doirasi tor bo‘lsa;
- fikr bayoni izchil bo‘lmasa;
- nutqida ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024-o‘quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Ona tili va adabiyoti fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo‘nalishlar bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a‘zodan kam bo‘lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e’lon qilinadi.

Ona tili va adabiyoti fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appellyatsiya komissiyasi universitet qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab, 24 soat ichida appellyatsiya komissiyasiga og‘zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appellyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o‘zining ishi bo‘yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko‘rib chiqadi va yakuniy qaromi beradi.

Qabul komissiyasi mas’ul kotibi:

dots. G‘.Qodirov